

**AKADEMIK ABDULAHAD MUHAMMADJONOVNING TOPONIM VA
GIDRONIMLAR SOHASIDAGI IZLANISHLARI**

Baxritdinov Jasurbek Mirzabek o'gli

Guliston davlat pedagogika instituti

1-kurs magistranti.

jasurbaxritdinov019@gmail.com

Tel: +998935964112

Ilmiy rahbar

Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich

Guliston davlat pedagogika

instituti dotsenti v.b, PhD.

Tel raq: +998 97 224 07 67

El.pochta: kanimkulov812310@gmail.com

Orcid: 0009-0006-6069-009X

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik olim Abdulahad Muhammadjonovning toponimlar va gidronimlar haqida olib borgan izlanishlari haqida soʻz boradi. Xususan, maqolada olimning joy nomlari ularning kelib chiqishi hamda davriy oʻzgarib borishi, sugʻorish tizimiga doir atamalar izohi va shaxsga doir taxalluslar haqida olib borgan tadqiqot ishlari, uning asarlari, chop ettirgan maqolalari misolida yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit soʻzlar: Gidronim, irrigatsiya, Sohibqiron, Tunkat, toponomika, Zulqarnayn, Shosh, Choch.

Abdulahad Muhammadjonov ilmiy faoliyatining muhim yoʻnalishlaridan biri toponomika sohasiga doir tadqiqotlar hisoblanadi. Bizga qoldirgan “Qadimgi Qangʻ”, “Poykand”, “Toshkent va toshkentliklar” kitoblari ayniqsa ahamiyatli. Mazkur kitob monografik xarakterga ega boʻlgan risola boʻlib, hajm jihatdan 5 ta bobdan ortiq boʻlsa ham qadimgi Toshkent, Qangʻ va toshkentliklar haqida eng muhim voqealarni qisqa lekin chuqur mazmunli qilib berganlar. Toponimist-tilshunos sifatida toponimlar, etnonimlar, antroponimlarning maʼno va motivlarini, ularning asliyatda, toʻgʻri va aniq shakllarini ilmiy - ommabop tarzda tushuntirib berishga bagʻishlangan 10 dan ortiq maqolalar yozdi. Olimning bir qator ishlarida toponimlarni oʻrganishning nazariy muammolari, toponimik tadqiqotning oʻziga xos xususiyatlari yuzasidan original mulohazalar bildirilgan. Jumladan asarda Toshkent shahrining qadimda qanday nomlanishi va uning asrlar davomida oʻzgarib borishi hamda ularning qanday manoni anglatishi haqida maʼlumotlar berilgan. Poytaxtimizni hozirgi nomi unga berilgan nomlarning eng soʻnggisi boʻlib, “Toshkent” soʻzi yozma manbalarda dastavval XI

asrning mashhur allomalari Abu Rayxon Beruniy va Mahmud Koshg'ariylarning asarlarida tilga olinadi[1; 5]. Bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Toshkentning eng qadimgi nomi "Choch" bo'lgan. Arab alifbosida «ch» harfining yo'qligi boisidan arabiy va forsiy asarlarda u "Shosh" deb yuritilgan. Ilk o'rta asrlarda u Choch, Shosh, Shoshkent, Madinat ash-Shosh, Binkat va Tunkat deb nomlangan. Avvalo shuni aytib o'tish joizki, Toshkentning eng qadimgi nomi — "Choch" shaharning yoshiga nisbatan qadimiyroqdir. Chunki bu nom hali Toshkent shahri paydo bo'lmasdan bir necha asrlar muqaddam Chirchiq va Oxangaron daryolari vodiylari va bu ikki daryoning suvi bilan obod etilgan Toshkent vohasiga berilgan bo'lib, bu o'lkaning qadimgi mahalliy aholisi tomonidan u "Choch eli", ya'ni "Chochanap" deb yuritilgan. Dastavval bu atama otashparastlarning qadimiy muqaddas kitobi Avestoda tilga olinadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, bu atama miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida yuzaga kelgan bo'lib, asli Orol dengizining qadimgi Eron tilidagi "Chaye-chasta" degan nomidan kelib chiqqan. Ma'lumki, vodiylar, voha yoki joy nomlari toponimlar, odatda ular joylashgan o'lka tabiatining ayrim xususiyatlari yoki qadimgi aholisi va ba'zan qad ko'targan aholi manzillarining soni va sifatlariga nisbatan beriladi. Bu qadimgi o'lka sharqdan Chotqol – Qurama va Qorjantov (Qorjovg'antov) tizmalari, janub va g'arbdan Sirdaryo va shimoldan qadimda Buyuk dasht yoki Dashti Qipchoq deb atalgan Qozog'istonning janubiy hududlari bilan o'ralib turadi. Uning bunday tabiiy sharoiti avvaldan o'lkaning iqtisodiy hayotida ayniqsa, bu yerda ibtidoiy chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklarining vujudga kelishi va rivojlanishida katta o'rin tutgan. Chotqol – Qurama tog'lari va tog'oldi adirliklar chorvachilik uchun keng yaylov, Chirchiq va Ohangaron daryo vodiylari dehqonchilik uchun asosiy ob'ektlar hayot manbayi bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, bu tog'lardan olinadigan turli xil ma'danlar o'lkada qadimdan hunarmandchilik:chilangarlik,misgarlik, zargarlik rivojlantirishga imkon bergan. "Choch" so'zi qadimda mahalliy aholi tilida "tog'" va "tosh" kabi ikki xil ma'nolarni anglatgan. Chochning rivojlanishida chirchiq daryosi muhim o'rin tutgan. O'rta asrlarda Chirchiq daryosi "Parak", "Obiparak", "Daryoyi Parak" nomlari bilan yuritilgan. "Par" yoki "Parak" aslida so'g'diycha bo'lib, u "yuqoridan pastga tushish", "enish", "qulash" ma'nolarini anglatadi. Masalan, Yag'nobliklar tog'dan tosh ko'chib qulaydigan joyni "sangpar" ya'ni "tosh qulash" deb ataydilar. Shunga asoslansa "obi parak" so'zma so'z "tog'dan oqib tushadigan daryo", "tez oqar daryo" yoki bir so'z bilan aytganda "sharshara" degan ma'noni anglatadi.

Miloddan avvalgi III asrda tashkil topib, milodning V asrigacha hukm surgan "Qang'", "Qanqa" yoki "Qangxa" deb atalgan. Xitoy yozma manbalarida u "Qangyuy" yoki "Qandzyuy" nomlari bilan tilga olinadi. Qadimgi to'xtarlar (Surxondaryo vohasining kadimgi axolisi)tilida "Qang'" so'zi ham "tosh" bilan bir qatorda "baland g'ildirakli toshdek mustahkam arava" ma'nosini anglatgan. Miloddan

avvalgi II – I asrlarda Qang‘ davlati nihoyatda kuchayib, unga beshta viloyat: Susey (Kesh), Fumu (Sugd), Yuni (Choch), Gi (Buxoro), Yuegyan (Xorazm) hokimlari bo‘ysungan. Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, bu viloyatlarning nomlari Xitoy manbalaridan olingani uchun xitoychadir. Demak, qadimda tog‘, so‘ngra undan oqib tushadigan daryo keyinchalik shu daryo tufayli obod etilgan vohaga berilgan “Choch” yoki “Chachanap” atamasi, nihoyat shu vohada qad ko‘targan dastlabki aholi yashaydigan qishloq va shahar ismiga aylangan. Bu atamaga avval “Kat”, so‘ngra “qand” yoki “kent” so‘zlari qo‘shilib yuritilgan. Bu keyingi qo‘shimchalar shubhasiz, aholi yashaydigan joy ekanini belgilab beruvchi so‘zlardir. Qadimgi Choch yoki Shosh vohasining dasht bilan tutashgan shimoliy chegarasida qad ko‘targan dastlabki aholi yashaydigan dehqonchilik qishlog‘i (keyinchalik u shaharga aylangan) Chochkat deb atalib, uning bizgacha yetib kelgan tepa shaklidagi xarobasi toshkentliklar o‘rtasida “Shoshtepa” nomi ostida shuhrat topgan. Arablar Toshkentni Shosh yoki Madinat ash-Shosh deb atashgan [2. 97-101-bb; 7].

Shuningdek, Abdulahad Muhammadjonov sug‘orish tizimiga doir turli xil gidronimlar izohi haqida ham bir qancha ishlar olib bordi. Olim o‘zing “Quy i Zarafshon o‘lkasining sug‘orilish tarixi” kitobida sug‘orish inshootlari va ular bilan bog‘liq juda ko‘plab atamalarni izohlari bilan keltirgan. Xususan, ushbu kitobda keltirilishicha, Zarafshon vodiysini bunyod etgan va bu vodiyni sug‘orilib obod etilishida hayotbaxsh ro‘l o‘ynagan yagona suv manbayi qadimda “Mosif” va “Nomik” daryosi deb yuritilgan. Yunonistonning antik dunyo mualliflari o‘z asarlarida uni “Politimet”, ya’ni “Ulug” yoki “Azim” daryo deb yozadilar. X asr arab geograflari uni “Vodi us-Sugd”, “Naxr us-Sugd” va “Naxr ul-Buxoro” nomlari bilan tilga oladilar. O‘rta asrlarda u “Xaromkom” va “Kuxak” daryosi nomlari bilan mashxur bo‘lgan. Keyinchalik “Qorako‘ldaryo” nomini olgan uning quyi oqimi esa “Rudi Somjan”, “Naxri Sharg”, “Naxri Jurg” va “Rudi Navfar” deb yuritilgan. XVIII asrdan boshlab unga “Zarafshon”, ya’ni “Zar sochuvchi” nomi berilgan. Katta mashaqqat bilan sug‘orish tarmoqlariga bog‘lab olingan suv ziroatchilarning ekin maydonlari hajmiga qarab belgilangan tartib bo‘yicha taqsimlangan. Sug‘orish shaxobchalarining bir kecha-yu bir kunduzgi oqimi quyi Zarafshonda “suv” deb atalgan. “Suv” ikki “toqa” va toqa esa to‘rt “chorak”dan iborat bo‘lgan. Chorak o‘z navbatida “nimcha” va “nininimcha”larga bo‘lingan. Shaxrud kanalining bosh to‘g‘onini tartibda saqlab turish Duoba atrofida 9 ta qishloqning aholisiga yuklangan edi [3. 351-358-betlar].

Abdulahad Muhammadjonovni ko‘proq toponimlarning tarixi, genetik asoslari, ma’no va etimologiyasi qiziqtirib keladi. Maqolalarida nomlarning etimologiyasi, lug‘aviy, grammatik, so‘z yasali sh xususiyatlariga oid fikrlar ham qayd qilingan. Masalan, olim “Sohibqiron”, “Zulqarnayn” atamalari haqida fikr yuritir ekan, 15 dan ziyod turli izohli lug‘atlar va yozma manbalarga murojaat qiladi. Ulardagi “Sohibqiron”, “Zulqarnayn” haqidagi fikrlarni bir-biriga qiyoslaydi va ularga o‘z

munosabatini bildiradi. Shundan so'ng "Sohibqiron", "Zulqarnayn" harbiy unvonlarning etimologiyasi xususida atroflicha fikr yuritib, keyin quyidagi xulosalarga keladi. "Sohibqiron", "Zulqarnayn", "qiron", "qarn", "qarnayn" shakllaridagi atamalar izohi borasida keltirilgan ma'lumotlarning etimologik talqinidan ma'lum bo'lishicha, "Sohibqiron" nomi Amir Temurga berilgan oliy darajali harbiy unvon bo'lib, bu "sohibizamon" va "sohib-adl", ya'ni adolat egasi ma'nolari bilan bir qatorda, umumiy tarzda aytganda, zamonning adolatli jahon podshohi ma'nosini anglatgan. Amir Temur mana shunday daholik martabasiga erisha olgan hukmdor, "Sohibqironi soniy", ya'ni, "Ikkinchi sohibqiron" nomi bilan atalgan. A.Temur va temuriylar davlatining asosiy qismida hukmronlik qilgan sulton Husayn Boyqaro va Eron shohi Nasriddinshoh Xajarlar o'zini "Sohibqironi soniy", ya'ni, "ikkinchi sohibqiron" deb atashganligi haqida ma'lumotlar keltirgan [4. 34-b; 6].

Xulosa qilib aytish mumkinki, olimning ilmiy asarlari ilmiy jamoatchilikda yuqori baholanib kelinyapti. A.Muhammadjonov ilmiy tadqiqotlarni pedagogik faoliyat bilan qo'shib olib borgan olimlarimizdan biridir. Fan oldidagi salmoqli xizmatlari uchun 1989-yilda u O'zbekiston Fanlar Akademiyasining a'zosi qilib saylangan edi. U kishi 1997-2004-yillarda "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnalining bosh muharriri bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek, Sharqshunoslik va Arxeologiya institutlari qoshidagi ixtisoslashgan maxsus kengash hamda Toshkent shahar Toponomika komissiyasining a'zosi edilar. A.Muhammadjonovning ilmiy-ijodiy faoliyati mustaqillik yillarida yangi mazmun bilan boyidi. Akademik olim qoldirgan ilmiy meros bugungi kunda ham tariximizni o'rganishda katta ta'sirga ega. 2020-yil 30-oktabrda "Fan tarixi rivojiga Akademik A.Muhammadjonovning qo'shgan hissasi" mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston tarixchilari. 1 jild (bibliografik malumotnoma). Toshkent:2000-yil.
2. Muhammadjonov A. "Toshkent va toshkentliklar" –Toshkent. Sharq; 2009. – 97-101-betlar.
3. Muhammadjonov A. "Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi" (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha) – Toshkent: Fan, 1972. – 351-358-betlar.
4. Muhammadjonov A. "Sohibqiron" va "Zulqarnayn" atamaları haqida. // O'zbek tili va adabiyoti. 2005. – 34 bet.
5. Sheraliyevich K. O. The Role of Studying the History of Irrigated Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov //NATURALISTA CAMPANO. – 2024. – T. 28. – №. 1. – C. 1735-1740.
6. Olimjon Sh. Kanimkulov. (2022). YAHYO GULOMOV IS THE ORGANIZER OF THE NATIONAL HISTORIAN-ARCHAEOLOGIST PERSONNEL TRAINING. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 186–188.

Retrieved

from

<https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/825>;

7. Канимкулов Олимжон Шералиевич. Яхъя Гулямов - крупный ученый-исследователь истории орошаемой земледельческой культуры // Вестник науки и образования. 2020. №9-3 (87). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yahya-gulyamov-krupnyy-uchenyy-issledovatel-istorii-oroshaemoy-zemledelcheskoy-kultury>.